Эсанов Шохрух Отабекович	
FACE RECOGNITION PROGRAM IN PYTHON	823
Khurramova Maftunakhon Zhurabekovna, Khurramov Azizjon Bakhodir ugli	
FORMATION OF ACCOUNTING POLICY FOR INTANGIBLE ASSETS	827
Farxod T. Abduvaxidov, Ramazon A. Abdurakhmanov	
O'ZBEKISTON EKSPORT TARKIBINI YUQORI QO'SHIMCHA QIYMATLI MAHSULOTLARGA O'TKAZISH STRATEGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	834
Raximov Eshmurod Normuradovich	
EKSPORT FAOLIYATIDA ERKIN IQTISODIY ZONALARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	838
Berdivaliyeva Madina Komiljon qizi	
TURIZM KLASSTERLARIDA TIBBIY XIZMATLAR INTEGRATSIYASI: XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI	841
Yazdanova Shohista Tuyg'un qizi Farxodova Shohnoza Umidbek qizi	
O'ZBEKISTON HAVO TRANSPORTI TIZIMINING JAHON IQTISODIYOTIDAGI O'RNI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	850
Azimova Moxinur Nozimovna	

KORXONALARNING YASHIL MARKETING STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna

TDIU, i.f.d., prof. Marketing kafedrası mudiri

Annotatsiya: Maqolada korxonalarda yashil marketing strategiyalarining qo'llanilishi o'rganilgan. Tadqiqotda empirik ma'lumotlar asosida iste'molchilarning xarid qarorlariga ekologik omillarning ta'siri tahlil qilingan. Brend imiji va iste'molchi ishonchining xarid jarayonidagi o'rni aniqlangan. Yashil innovatsiyalarni joriy etish va ta'minot zanjirida ekologik standartlarga amal qilish samaradorlikni oshirish omillari sifatida ko'rsatilgan. Natijalar yashil marketingning korxonalar raqobatbardoshligini mustahkamlash hamda barqaror rivojlanishni ta'minlashda muhim strategik vosita ekanini ko'rsatgan.

Kalit so'zlar: yashil marketing, raqobatbardoshlik, iste'molchi ishonchi, brend imiji, yashil innovatsiya, ta'minot zanjiri.

Abstract: This article examines the implementation of green marketing strategies in enterprises. Based on empirical data, the impact of environmental factors on consumer purchasing decisions is analyzed. The role of brand image and consumer trust in the decision-making process is identified. It is shown that the introduction of green innovations and compliance with environmental standards in the supply chain are factors that enhance efficiency. The results confirm that green marketing is an important strategy for strengthening the competitiveness of enterprises and ensuring sustainable development.

Key words: green marketing, competitiveness, consumer trust, brand image, green innovation, supply chain.

Аннотация: В статье рассмотрено применение стратегий зеленого маркетинга в деятельности предприятий. На основе эмпирических данных проанализировано влияние экологических факторов на потребительские решения о покупке. Выявлена значимость имиджа бренда и доверия потребителей в процессе выбора. Показано, что внедрение зеленых инноваций и соблюдение экологических стандартов в цепочке поставок являются факторами повышения эффективности. Полученные результаты подтверждают, что зеленый маркетинг выступает важной стратегией в укреплении конкурентоспособности предприятий и обеспечении устойчивого развития.

Ключевые слова: зеленый маркетинг, конкурентоспособность, доверие потребителей, имидж бренда, зеленые инновации, цепочка поставок.

KIRISH

Atrof-muhit bilan bog'liq masalalarga qaratilayotgan e'tibor kundan-kunga ortib bormoqda va bu holat iqtisodiyotning barcha sohalarida yangi yondashuvlarni talab qilmoqda. Korxonalar uchun barqarorlik nafaqat ijtimoiy majburiyat, balki bozorda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishning muhim sharti sifatida qaralmoqda. Shu jihatdan yashil marketing strategiyalari katta ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuv mahsulot va xizmatlarni ekologik talablar asosida ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlab, mijozlar ongida ijobiy imij shakllanishiga yordam beradi.

Yashil marketing korxonaning raqobatbardoshligini mustahkamlash va uzoq muddatli rivojlanish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Xaridorlarning ekologik qadriyatlarga asoslangan xarid odatlari kengayib borayotgani korxonalarni yangi strategiyalar ishlab chiqishga undamoqda. Mahsulot sifati va narxi bilan bir qatorda, uning ishlab chiqarish jarayonida ekologik talablarning bajarilganligi xaridor uchun muhim omilga aylanmoqda. Shu sababli yashil marketingni tatbiq etish korxonalarga bozorga tez moslashish, mijozlar ishonchini mustahkamlash va uzoq muddatli sodiqlikni shakllantirish imkonini beradi.

Ilmiy adabiyotlarda yashil marketingni amaliyotga joriy etgan korxonalar brend imijini kuchaytirishi, mijozlar bilan uzoq muddatli hamkorlikni rivojlantirishi va raqobatda sezilarli ustunlikka erishishi ta'kidlanadi. Bu jarayonda innovatsion texnologiyalardan foydalanish, tashkilot ichida bilim almashishni rivojlantirish va ta'minot zanjirida ekologik standartlarga rioya etish muhim ahamiyatga ega.

Yashil marketingning o'rganilishi ilmiy va amaliy nuqtai nazardan dolzarbdir. U orqali korxonalar iqtisodiy samaradorlikka erishish bilan birga, jamiyatda ekologik mas'uliyatni kuchaytiradi va barqaror rivojlanishga

hissa qo'shadi. Shu sababli ushbu mavzuni chuqur tadqiq etish korxonalar uchun aniq strategik qarorlar qabul qilishda muhim ilmiy asos yaratadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Yashil marketing so'nggi yillarda korxonalar faoliyatida barqarorlikni ta'minlovchi va raqobatbardoshlikni oshiruvchi strategik vosita sifatida keng tadqiq qilinmoqda. Mavjud adabiyotlarni ko'rib chiqish shuni ko'rsatadiki, yashil marketing nafaqat ekologik tamoyillarni qo'llash, balki korxonalar uchun bozor ustunligini yaratish, iste'molchilarning ongini shakllantirish va uzoq muddatli sodiqlikni ta'minlashda ham muhim rol o'ynaydi [1].

Tadqiqotlarning bir qismida yashil marketingning korxona raqobatbardoshligiga bevosita ta'siri o'rganilgan. Xususan, ekologik mas'uliyatli yondashuvlar korxonaning ijobiy imijini shakllantirish va mijozlar ishonchini mustahkamlashga yordam berishi qayd etilgan [9]. Shu bilan birga, yashil strategiyalarni ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlariga integratsiya qilish bozor ustunligini ta'minlovchi omil sifatida qaraladi [10]. Bu esa korxona uchun raqobatda afzallik beruvchi barqaror natijalarni yaratadi.

Adabiyotlarda iste'molchilarning yashil xarid qarorlari ham alohida o'rganilgan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, xaridorlar qarorida ekologik ong muhim omil hisoblanadi [3]. Iste'molchilar nafaqat mahsulot sifati va narxiga, balki ishlab chiqarish jarayonida atrof-muhitga ko'rsatilgan ta'sir darajasiga ham katta e'tibor qaratmoqda [4]. Yashil brend imiji va iste'molchi ishonchi esa xarid niyatiga vositachilik qiluvchi asosiy ko'rsatkichlardan biri sifatida qayd etilgan [5]. Ayniqsa, ekologik reklama iste'molchilarni jalb qilishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi [6].

Brend rivoji masalasida ham yashil marketingning ahamiyati keng yoritilgan. Tadqiqotlarda yashil marketing elementlarini raqamli platformalar bilan uyg'unlashtirgan va uni korporativ ijtimoiy mas'uliyat siyosati bilan birlashtirgan korxonalar brend sodiqligini oshirishga muvaffaq bo'layotgani aniqlangan [7]. Yashil brend imiji esa iste'molchilarda ishonch uyg'otib, korxonaning uzoq muddatli muvaffaqiyatiga zamin yaratadi [5].

Ilmiy ishlarda yashil innovatsiyalar va tashkiliy o'rganish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ham keng tahlil qilingan. Xitoyda olib borilgan tadqiqotlarda yashil innovatsiyalarni joriy etgan korxonalar tashkiliy bilim almashish va yangi yondashuvlarni o'zlashtirish orqali bozorda yuqori natijalarga erishayotgani ko'rsatib o'tilgan [8]. Shuningdek, ishlab chiqarish sohasida chiqindilarni kamaytirish va resurslardan samarali foydalanishga qaratilgan innovatsiyalar korxonalar uchun iqtisodiy va ijtimoiy afzalliklarni ta'minlaydi [2].

Shu bilan birga, adabiyotlarda yashil marketing bilan bog'liq muammolar ham qayd etilgan. Eng ko'p uchraydigan masalalardan biri bu greenwashing — ya'ni kompaniyalarning asossiz ekologik da'volaridir [12]. Bunday amaliyot iste'molchilarda ishonchsizlikni kuchaytirib, xarid qilish ehtimolini kamaytiradi [13]. Shu sababli, ko'plab tadqiqotlarda kompaniyalardan ekologik da'volarini faktlar, sertifikatlar va mustaqil baholash natijalari bilan tasdiqlash talab etiladi [12].

Yashil marketing konsepsiyasi ta'minot zanjiri boshqaruvida ham muhim o'rin tutadi. Ilmiy manbalarda yashil ta'minot zanjiri amaliyotlari ekologik standartlarga mos boshqaruv tizimlari orqali korxonalarning bozor ustunligini oshirishi qayd etilgan [14]. Ayniqsa, pandemiya davrida yashil ta'minot zanjiri jarayonlarini raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt bilan uyg'unlashtirish orqali korxonalar resurslardan samarali foydalanib, barqarorlikni saqlab qolishga muvaffaq bo'lgan [14].

B2B segmentida ham yashil marketingning ahamiyati ko'rsatib o'tilgan. Tadqiqotlarda professional xaridorlar uchun mahsulot sifati, narxi va korporativ imij asosiy determinantlar sifatida baholanadi [15]. Shu bilan birga, yashil marketing strategiyalarini joriy qilgan korxonalar professional xaridorlarning qoniqishi va sodiqligini oshirishga muvaffaq bo'lgani aniqlangan [15]. Bu esa yashil marketingning nafaqat yakuniy iste'molchilarga, balki biznes mijozlarga ham sezilarli ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi.

Adabiyotlarni tahlil qilish natijasida yashil marketingning korxonalarga ko'p qirrali ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. U iste'molchilarning ekologik ongini shakllantirish, brend rivojini ta'minlash, innovatsiyalarni joriy etish, ta'minot zanjiri samaradorligini oshirish va B2B segmentida hamkorlikni mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega ekanligi ilmiy jihatdan tasdiqlangan. Shu bois, yashil marketing strategiyalari korxonalarning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlashda zaruriy vosita sifatida qaralishi mumkin [1].

TADQIQOT METODOLOGIYASI


Tadqiqotda yashil marketing strategiyalarining korxona faoliyatiga ta'sirini izchil ochib berish uchun aralash yondashuv tanlandi. Nazariy qismda xalqaro va mahalliy ilmiy manbalar kontent tahlili orqali o'rganildi, turli konsepsiyalar qiyosiy tahlil qilinib, ularning umumiy va farqli jihatlari aniqlab chiqildi. Empirik bosqichda korxonalar faoliyatidan hamda iste'molchilarning xarid odatlaridan olingan ma'lumotlar asosida so'rovnomalar tashkil etildi. Yig'ilgan natijalar statistik ishlov berish jarayonida regressiya va korrelyatsiya usullari orqali tahlil qilinib, yashil marketing omillarining raqobatbardoshlikka qanchalik ta'sir ko'rsatishi belgilandi. Mazkur metodik

asos tadqiqot natijalarini nazariy qarashlar bilan uyg‘unlashtirish, muammolarni kompleks ko‘rib chiqish va amaliy xulosalar ishlab chiqish imkoniyatini yaratdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot davomida yig‘ilgan empirik ma‘lumotlarning keng qamrovli tahlili yashil marketing strategiyalarining korxonalar faoliyatida muhim o‘rin tutishini ko‘rsatdi. Natijalar shuni tasdiqlaydiki, ekologik tamoyillarga asoslangan marketing yondashuvlari korxonalarga bozorda raqobatbardosh ustunlik yaratish imkonini beradi [1]. So‘rovlar va kuzatuvlar iste‘molchilar orasida yashil marketing tashabbuslariga bo‘lgan qiziqish darajasi ortib borayotganini ko‘rsatdi. Ayniqsa, mahsulotlarning ekologik tozaligi va korxonaning barqaror rivojlanishga qo‘shgan hissasi xarid qarorida muhim omil sifatida qayd etildi [3].

Ma‘lumotlarni tahlil qilish natijasida iste‘molchilarning xarid odatlarida ekologik ongning asosiy rol o‘ynashi tasdiqlandi [4]. Iste‘molchilar mahsulot tanlashda nafaqat narx va sifatga, balki uning ishlab chiqarilish jarayonida atrof-muhitga keltirilgan zarar darajasiga ham e‘tibor qaratishi aniqlandi [5]. Statistika hisob-kitoblar ko‘rsatadiki, yashil brend imiji xarid niyatiga kuchli vositachilik ta‘sirini ko‘rsatadi [6]. Brendning ekologik qadriyatlar bilan bog‘liq ma‘lumotlar iste‘molchilarning qaror qabul qilish jarayonini ijobiy tomonga o‘zgartiradi [7]. Shuningdek, reklama va axborot strategiyalarida mahsulotning ekologik ustunliklarini aniq ifodalash xarid ehtimolini oshiruvchi omil sifatida qayd etildi [6].




1-rasm. Yashil marketing strategiyalarining rivojlanish dinamikasi[10]

Ushbu rasmda 2015–2022 yillar oralig‘ida yashil marketing strategiyalarining rivojlanish darajasi foizlarda tasvirlangan. Grafikdan ko‘rinadiki, so‘nggi sakkiz yil davomida yashil marketing yondashuvlariga bo‘lgan qiziqish izchil ravishda oshib borgan. 2015-yildagi 10 foizlik daraja 2022-yilga kelib 85 foizgacha ko‘tarilgan. Bu ko‘rsatkichlar yashil marketingning nafaqat global miqyosda, balki milliy bozorlar kesimida ham muhim tendensiyaga aylanganini tasdiqlaydi [10].

Yashil marketingning brend rivojidadagi o‘rni ham alohida e‘tiborga loyiqdir. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, yashil marketing elementlarini raqamli platformalarda qo‘llagan korxonalar barqaror brend rivojiga erishmoqda [7]. Bu jarayonda ekologik qadriyatlar bilan uyg‘unlashgan brend tasavvuri shakllanib, iste‘molchilar ongida barqarorlik va ishonchlilik haqidagi qarashlar kuchayadi [5]. Natijada, mijozlarning sodiqligi ortib, uzoq muddatli hamkorlik imkoniyatlari kengayadi [7].

Tadqiqot doirasida yashil innovatsiyalar va tashkiliy o‘rganish o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik ham tahlil qilindi. Natijalar korxonalarning yashil innovatsiyalarni faol joriy etishi ularning ichki o‘rganish qobiliyati bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatdi [8]. Innovatsion yondashuvlar jarayon samaradorligini oshirish bilan birga xarajatlarni

kamaytiradi va yangi bozor imkoniyatlarini yaratadi [2]. Shu orqali korxonalar nafaqat iqtisodiy foyda ko'radi, balki ekologik talablarga moslashish orqali ijtimoiy ishonchni ham mustahkamlaydi [8]. Masalan, ishlab chiqarish sohasida chiqindilarni kamaytirishga qaratilgan innovatsiyalar resurslardan samarali foydalanishga yordam beradi va ekologik jihatdan sezilarli afzalliklarni taqdim etadi [2].



2-rasm. Yashil marketing omillarining xarid qaroriga ta'sir kuchi

Rasmda ko'rsatilganidek, iste'molchilarning xarid qaroriga eng katta ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida brend imiji qayd etilgan [4]. Shuningdek, iste'molchi ishonchi va mahsulot sifati ham muhim rol o'ynaydi [5]. Ekologik reklama 70%, narx omili esa 60% darajada ta'sir kuchiga ega ekanligi aniqlandi [6]. Bu natijalar shuni ko'rsatadiki, xarid qarorlarida nafaqat mahsulotning moddiy ko'rsatkichlari, balki korxonaning ekologik qadriyatlar bilan bog'liq imiji ham ustuvor ahamiyat kasb etadi [7].

Tahlil natijalari yashil marketing amaliyotlari bilan bog'liq muammolarni ham ochib berdi. Xususan, greenwashing muammosi — ya'ni korxonalarning asossiz ekologik da'volari — iste'molchilarda chalkashlik va ishonchsizlikni kuchaytirishi mumkinligi kuzatildi [12]. Statistik tahlillar shuni ko'rsatdiki, agar mijozlar kompaniya tomonidan ilgari surilgan ekologik da'volarning ishonchligiga shubha qilsa, ularning xarid qilish ehtimoli kamayadi [13]. Bu esa korxona imijiga salbiy ta'sir ko'rsatadi [13]. Shu sababli kompaniyalar ekologik da'volarini xalqaro sertifikatlar va mustaqil baholash natijalari bilan asoslashlari zarur [12].

Tadqiqot davomida ta'minot zanjiri boshqaruvi ham alohida tahlil qilindi. Natijalarda yashil ta'minot zanjiri amaliyotlari ekologik standartlarga mos boshqaruv tizimlari orqali korxonalarning bozor ustunligini mustahkamlashda muhim o'rin tutishi qayd etildi [14]. Ayniqsa, COVID-19 pandemiyasi davrida yashil ta'minot zanjiri amaliyotlarini big data tahlili va sun'iy intellekt texnologiyalari bilan uyg'unlashtirgan korxonalar yuqori natijalarga erishgani kuzatildi [14]. Ushbu yondashuv resurslardan oqilona foydalanish va ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish imkonini berdi [14].

Bundan tashqari, yashil marketingning B2B segmentidagi ta'siri ham o'rganildi. Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, professional xaridorlar uchun mahsulot sifati va narxi asosiy determinantlar sifatida baholanadi [15]. Shu bilan birga, yashil marketing strategiyalarini joriy qilgan korxonalar professional xaridorlarning qoniqish darajasini oshirishga muvaffaq bo'lishmoqda [15]. Bu esa yashil marketing nafaqat yakuniy iste'molchilarga, balki biznes mijozlarga ham ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi [15].

Tahlil natijalari yashil marketing strategiyalarining korxonalar faoliyatida ko'p qirrali ahamiyat kasb etishini ko'rsatdi. Empirik dalillar shuni ko'rsatadiki, yashil marketing iste'molchilar ongini shakllantirishda [3], brend rivojida [7], innovatsiyalarni joriy etishda [8], ta'minot zanjirini samarali boshqarishda [14] va B2B segmentida ham [15] barqaror natijalar beradi. Shu jihatdan, yashil marketing korxonalarning uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta'minlovchi strategik omil sifatida qaralishi mumkin [1].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari yashil marketing strategiyalari korxonalar faoliyatida aniq natijalar berishini ko'rsatdi. Ekologik tamoyillarga asoslangan yondashuvlar kompaniyaning bozor imijini mustahkamlashga, mijozlar ishonchini oshirishga va raqobatbardoshlikni ta'minlashga yordam beradi. Xaridorlar qarorida ekologik ong sezilarli ahamiyat kasb etayotgani ma'lum bo'ldi. Mahsulotning narxi va sifati bilan bir qatorda ishlab chiqarish jarayonida tabiatga zarar yetkazilmaganligi ham xarid uchun muhim omil bo'lib bormoqda. Shu sababli yashil marketing strategiyalari nafaqat iqtisodiy foyda, balki uzoq muddatli mijozlar sodiqligini yaratishga xizmat qiladi.

Innovatsiyalarni ishlab chiqarishga joriy qilish, tashkilot ichida bilim almashish va ekologik talablarga moslashish korxonalarning bozor imkoniyatlaridan samarali foydalanishiga yordam beradi. Ta'minot zanjirida yashil yondashuvlarni qo'llash resurslardan oqilona foydalanish va ishlab chiqarish jarayonlarini yanada samarali qilishga imkon beradi. B2B bozorida yashil marketing professional xaridorlar bilan ishonchli hamkorlikni mustahkamlashda ham ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, asossiz ekologik da'volar (greenwashing) mijozlar ishonchini pasaytirishi mumkinligi aniqlandi. Bunday vaziyatlarning oldini olish uchun kompaniyalar o'z da'volarini aniq dalillar va xalqaro sertifikatlar orqali asoslashlari zarur.

Olingan natijalarga tayanib, quyidagi tavsiyalar berish mumkin. Birinchidan, korxonalar yashil marketing strategiyalarini ishlab chiqishda xaridorlarning ekologiyaga bo'lgan qarashlarini va xarid odatlarini hisobga olishlari kerak. Ikkinchidan, brend imijini kuchaytirish uchun ekologik reklama va ma'lumot kampaniyalariga e'tibor qaratish muhimdir. Uchinchidan, ishlab chiqarishda yashil innovatsiyalarni kengroq tatbiq etish va xodimlar o'rtasida bilim almashishni rivojlantirish zarur. To'rtinchidan, ta'minot zanjirida ekologik standartlarga amal qilish va yangi texnologiyalarni qo'llash orqali samaradorlikni oshirish tavsiya etiladi. Beshinchidan, kompaniyalar faoliyatida shaffoflikni ta'minlash va xalqaro mezonlarga asoslanib ishlash raqobatda ustunlik yaratadi.

Yashil marketing strategiyalarini kengroq tatbiq qilish orqali korxonalar o'z iqtisodiy samaradorligini oshirishi, mijozlar ishonchini mustahkamlashi va ekologik barqarorlikni qo'llab-quvvatlashi mumkin. Shu yondashuv asosida shakllangan kompaniyalar uzoq muddatli rivojlanishda barqaror va ishonchli natijalarga erishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Alam, S. M. S., & Islam, K. M. Z. (2021). Examining the role of environmental corporate social responsibility in building green corporate image and green competitive advantage. *International Journal of Corporate Social Responsibility*, 6(8). <https://doi.org/10.1186/s40991-021-00062-w>
2. Sellitto, M. A., Camfield, C. G., & Buzuku, S. (2020). Green innovation and competitive advantages in a furniture industrial cluster: A survey and structural model. *Sustainable Production and Consumption*, 23, 94–104. <https://doi.org/10.1016/j.spc.2020.04.007>
3. Nekmahmud, M., & Fekete-Farkas, M. (2020). Why not green marketing? Determinants of consumers' intention to green purchase decision in a new developing nation. *Sustainability*, 12(19), 7880. <https://doi.org/10.3390/su12197880>
4. Tan, Z., Sadiq, B., Bashir, T., Mahmood, H., & Rasool, Y. (2022). Investigating the impact of green marketing components on purchase intention: The mediating role of brand image and brand trust. *Sustainability*, 14(10), 5939. <https://doi.org/10.3390/su14105939>
5. Majeed, M. U., Aslam, S., Murtaza, S. A., Attila, S., & Molnár, E. (2022). Green marketing approaches and their impact on green purchase intentions: Mediating role of green brand image and consumer beliefs towards the environment. *Sustainability*, 14(18), 11703. <https://doi.org/10.3390/su141811703>
6. Alamsyah, D. P., Othman, N. A., & Mohammed, H. A. A. (2020). The awareness of environmentally friendly products: The impact of green advertising and green brand image. *Management Science Letters*, 10(8), 1961–1968. <https://doi.org/10.5267/j.msl.2020.2.017>
7. Tariq, E., Alshurideh, M., Akour, I., Al-Hawary, S., & Al Kurdie, B. (2022). The role of digital marketing, CSR policy and green marketing in brand development. *International Journal of Data and Network Science*, 6, 995–1004. <https://doi.org/10.5267/j.ijdns.2022.1.012>
8. Tu, Y., & Wu, W. (2020). How does green innovation improve enterprises' competitive advantage? The role of organizational learning. *Sustainable Production and Consumption*, 26, 504–516. <https://doi.org/10.1016/j.spc.2020.12.031>
9. Zameer, H., Wang, Y., & Yasmeen, H. (2019). Reinforcing green competitive advantage through green production, creativity and green brand image: Implications for cleaner production in China. *Journal of Cleaner Production*, 119119. <https://doi.org/10.1016/j.jclepro.2019.119119>
10. Rahman, S. (2022). Towards sustainable development: Coupling green marketing strategies and consumer behavior. *Business Strategy and the Environment*, 31(5), 2104–2120. <https://doi.org/10.1002/bse.2990>
11. Ng, T., Nguyen, M. N., & Huong, N. T. T. (2020). Green marketing development strategy in post Covid-19 period in Vietnam. *ResearchGate*. <https://www.researchgate.net/publication/353402828>
12. Tarabieh, S. M. Z. A. (2020). The impact of greenwash practices over green purchase intention: The mediating effects of green confusion, green perceived risk, and green trust. *Management Science Letters*, 11(2), 451–464. <https://doi.org/10.5267/j.msl.2020.9.022>

13. Szabo, S., & Webster, J. (2021). Perceived greenwashing: The effects of green marketing on environmental and product perceptions. *Journal of Business Ethics*, 171(4), 719–739. <https://doi.org/10.1007/s10551-020-04461-0>
14. Zhang, Q., Gao, B., & Luqman, A. (2022). Linking green supply chain management practices with competitiveness during Covid-19: The role of big data analytics. *Technology in Society*, 70, 102021. <https://doi.org/10.1016/j.techsoc.2022.102021>
15. Gelderman, C. J., Schijns, J., Lambrechts, W., & Vijgen, S. (2021). Green marketing as an environmental practice: The impact on green satisfaction and green loyalty in a business-to-business context. *Business Strategy and the Environment*, 30(5), 2061–2076. <https://doi.org/10.1002/bse.2732>



**TOSHKENT DAVLAT
IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

IV GLOBAL VA MILLIY IQTISODIYOT TRENDLARI: “O‘ZBEKISTON – 2030” STRATEGIYASI FORUMI

YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT

Ilmiy elektron jurnal

(MAXSUS SON)

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o‘g‘li

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF ECONOMICS

23-24

OCTOBER
2030

1st CONFERENCE:
DIRECTIONS FOR ENSURING
SUSTAINABLE ECONOMIC
GROWTH IN THE CONTEXT OF
TRANSITION TO A GREEN ECONOMY

23-24
OCTOBER
2025

3RD CONFERENCE:
MACHINE LEARNING AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE:
A NEW APPROACH TO ECONOMETRIC ANALYSIS

CONFERENCE "GLOBAL
AND NATIONAL ECONOMIC
TRENDS"

UZBEKISTAN
STRATEGY

23-24 OCTOBER

- ARTIFICIAL INTELLIGENCE
AND DIGITAL TECHNOLOGIES
- ECONOMETRICS AND
BUSINESS ANALYTICS
- DATA SCIENCE (DATABASES)
- DIGITAL GOVERNMENT
- DIGITAL TRANSFORMATION
- ECONOMIC STATISTICS
- QUANTITATIVE MEASUREMENT
OF THE ECONOMY

2nd CONFERENCE:
BANKING AND
FINANCIAL SYSTEM AND
DIRECTIONS FOR DEVELOPING
THE PRIVATE SECTOR

23-24 2025
OCTOBER

- Makroiqtisodiy barqarorlik
- Yashil iqtisodiyotda
mehnat bozori
- Jahon iqtisodiyoti va xalqaro
iqtisodiy munosabatlar
- Yashil investitsiya va kreditlash
- Yashil texnologiyalar
- Eko turizm
- Yashil innovatsiyalar

СТРАТЕГИЯ
«УЗБЕКИСТАН – 2030»

23-24 2025
OCTOBER

- Makroiqtisodiy barqarorlik
- Yashil iqtisodiyotda
mehnat bozori
- Jahon iqtisodiyoti va xalqaro
iqtisodiy munosabatlar
- Yashil investitsiya va kreditlash
- Yashil texnologiyalar
- Eko turizm
- Yashil innovatsiyalar

strategy2025.tsue.uz

YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH
SHAROITIDA BARQAROR IQTISODIY
O'SISHNI TA'MINLASH YO'NALISHLARI

2030

<https://strategy2025.tsue.uz/>

TASHKENT STATE UNIVERSITY OF ECONOMICS ФОРУМ UZBEKISTAN
STRATEGY



ISSN: 2992-8982

Elektron pochta: sq1141983@gmail.com

Telefon: +998 93 124 57 11

Sayt: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Telegram: https://t.me/taraqqiyot_va_talim_uz

ISBN 978-9910-8110-8-1



9 789910 811081

CONFERENCE "GLOBAL
AND NATIONAL ECONOMIC
TRENDS"

1st CONFERENCE:
DIRECTIONS FOR ENSURING
SUSTAINABLE ECONOMIC
GROWTH IN THE CONTEXT OF
TRANSITION TO A GREEN ECONOMY

2030
UZBEKISTAN
STRATEGY

BANK-MOLIYA TIZIMI
VA XUSUSIY SEKTORNI
RIVOJLANTIRISH
YO'NALISHLARI